



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI**



Buxoro - 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida**

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to'plami*

Buxoro 2024-yil, 15-may

Tahrir hay'ati

- O.X.Xamidov** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
- R.G'.Jumayev** - Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
- T.H.Rasulov** Fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), dotsent;
- D.R. Djurayev** - Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
- S.Q. Qaxxorov** - Pedagogika fanlari doktori, professor;
- A.A. Turayev** - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
- S. Bo'riyev** - Biologiya fanlari doktori, professor;
- B.N.Navro'z-zoda** - Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
- D.S. O'rayeva** - Filologiya fanlari doktori, professor;
- A.R.Hamroyev** - Pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent;
- M.B.Ahmedova** - Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent;
- B.E.Qilichov** - BuxDU "Ozbek tilshunosligi va jurnalistikasi" kafedrasi professori;
- E.B.Dilmurodov** - Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – *magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent*

Musahhih:

Sh. Ramazonov – *bosh moharrir BuxDU 2-bosqich magistranti*

T.Sh.Ergashev – *Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi*

D.R.Rahmatova – *Magistratura bo'limi mutaxassisi*

Ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'iga asosan tashkil etildi. To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o'zлари mas'uldirlar.

rivojlantirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Ulardagi naqshlarni estetik did bilan tanlashni va moslashtirib qo'yishni bilish kerak. Shu sababli biz o'quvchilarga applikatsiya ishlarini amaliy mashg'ulotlarda to'liq tushuntirib o'tishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. M.Tilavova“Texnologiya va uni o'qitish metodikasi” Durdona nashriyoti,Buxoro-2021
- 2.Sanoqulov X.R, Xodieva D.P. Satbaeva“Mehnat va uni o'qitish metodikasi”Darslik .T.;TDPU.2015-yil.
3. Mavlanova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.
4. Sanaqulov X., Xaydarov M “Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar” o'quv-metodik qo'llanma .T.;Navruz.2013-yil.
5. I.Mannopova, R.Mavlanova, N.Ibragimova Texnologiya umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik .Toshkent-2017
6. Matlab Tilavova “Texnologiya va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent “Muhammarr nashriyoti”. 2019

O'ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRI TARAQQIYOTI

N.Bekova

BuxDU, professori, f.f.d.(DSc)

A.Ortiqova

BuxDU, magistranti

Annotatsiya. Maqolada lirikaning yetakchi janri hisoblanuvchi musammatlar, xususan, muxammasning janriy belgilari atroflicha tahlil etiladi. Uning shakliy xussiyatlari, g'oya va badiiyati, mavzu ko'lami haqida so'z boradi. Shuningdek, davrlar silsilasidagi taraqqiyotiga ahamiyat beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek mumtoz adabiyoti, poetik shakllar, musammat, muxammas, muvashshah, tab'i xud muxammas, taxmis.

O'zbek mumtoz adabiyoti she'riy shakllari orasida bandli she'rlar alohida ahamiyat kasb etadi. Banddag'i misralarning miqdoriga ko'ra farqlanuvchi she'r shakllari musammat atamasi ostida birlashadi Musammat arabcha "tasmit" so'zidan olingan bo'lib, "marvarid tizmasi", "marvarid donalarini ipga termoq" degan ma'nolarni ifodalaydi.

Musammatlarning janr sifatida shakllanishi XI asrga to'g'ri keladi. Manbalarda ilk musammatlar yaratgan shoirlar sifatida Manuchehri Damg'oniy (vaf. 1040) va Qatron Tabriziy (XI asr o'rtalari) nomlari tilga olinadi. Musammatlarning vujudga kelishida g'azalda musajja' san'atini qo'llash hamda **muvashshah** va **zajal** kabi arab she'riyatidagi bandli she'r shakllarining ta'siri kuchli bo'lgan. Musammatlar dastlab *tasmit* nomi bilan atalgan.

Turkiy adabiyotshunoslikda musammatlar haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida keltirilgan.⁸²

Musammatlar banddagi misralar soniga ko‘ra 8 xil bo‘ladi. Bunda she‘r bandlarining baytdan tashqari bandlari asos qilib olinadi. Ya’ni, har bandi uchlik – musallas, har bandi to‘rtlik – murabba’, har bandi beshlik – muxammas, har bandi oltilik – musaddas, har bandi yettilik – musabba’, har bandi sakkizlik – musamman, har bandi to‘qqizlik – mustasne’, har bandi o‘nlik – muashshar. Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida esa musammatlarning besh turini keltirib o‘tadi: *murabba’, muxammas, musaddas, musamman va muashshar*.⁸³

Biz maqolada muxammas janrining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz.

MUXAMMAS (ar.beshlik) - musammat turlaridan biri, besh misrali bandlardan tarkib topuvchi she‘r shakli. Muxammas she‘r shaklida dastlabki band misralari o‘zaro qofiyalanadi (a-a-a-a-a), keyingi bandlarining avvalgi to‘rt misrasi o‘zaro, oxirgi misrasi esa birinchi band bilan (b-b-b-b-a, v-v-v-v-a) qofiyalanadi.⁸⁴

Muxammas yaratilish xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) *tab‘i xud* – mustaqil muxammas; 2) *taxmis* – g‘azalni beshlantirish asosida yaratiladigan muxammas.

Tab‘i xud muxammasda barcha misralar bir shoirning o‘zi tomonidan yaratiladi. Bunda ijodkor o‘zga shoir she‘rini asos qilib olmaydi, balki o‘zi mustaqil ravishda beshlik yaratadi. Turkiy adabiyotda tab‘i xud muxammasning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Yusuf Amiri yiodida uchraydi.

*Eykim, ko ‘runur la ’li labing shahd ila shakkar,
So ‘z birla labi la ’ling erur qandi mukarrar,
Santak sanamo yo ‘qturur ruhi munavvar,
Ko ‘ngul olg ‘uchi qadi chu (sihiy) sarvu sanavbar
Kim, bo ‘lsa sochi sunbulu yuzi guli ahmar.*

*Ey sarvi sumansoqli, shirin dahaning bor,
Gulning tanitak nozuku zebo badaning bor.
Gasht etgali jonimning ichinda chamaning bor,
Gul yuzunga bulbul biki zore chu maning bor
Aylama gul avroqi bikin xotirim abtar (**Hofiz Xorazmiy**)
Soyaidurmank iboqmas oftobim kim desun?
Bora- bora ketdi qadrim, intixobim kim desun?
Bir o ‘qitmaydur bitib bergen kitobim kim desun?
Ul tag’ofulpeshaga holixarobim kim desun?
Hajrida mundog ‘ meni ko ‘rgan azobim kim desun?
Oshnosidin kechib, begonalarga yor-yor,
Bu alamlarga chidolmay, ko ‘z yoshimdir shashqator,
Hech dushman bo ‘Imasun qo‘yida mendek xoru zor*

⁸² D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. T., 2018.

⁸³ D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. T., 2018.

⁸⁴ Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013

*Kunduzi bir yerda bir dam olmay oromu qaror,
Lahzae yo ‘q kechalar ko ‘zlarda xobim kim desun? (Muqimiyy)*

Yuqorida keltirilgan muxammas “tab'i xud” - ya'ni shoirning o‘z muxammasidir.⁸⁵ Muxammasning bu turi Xofiz Xorazmiy, Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi shoirlar ijodida katta o‘rin egallaydi. She'riyatimizda muxammasning birinchi band oxiridagi bir yoki ikki misra keyingi bandlar so‘ngida tarje' sifatida takrorlanuvchi xili ham uchraydi. Bir misra tarje' qilingan muxammaslarda qofiyalanish odatdagidek bo‘lsa, ikki misra tarje' qilingan muxammaslarda qofiyalanish a-a-a-a-a, b-b-b-a-a, v-v-v-a-a... ko‘rinishida bo‘ladi. Masalan, Mashrabning “Ey safobaxshi bahorim, bo‘stonim, qaydasan?” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasida har bir band oxirida “Volidam, Makkam, Madinam, mexribonim, qaydasan?” misrasi tarje' qilingan;⁸⁶

Taxmisda muallif o‘zga shoir yoki ba’zida o‘z g‘azalini asos – zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettingani holda, vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingen g‘azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo‘shiladi. Maqta’ bandda taxmis bog‘layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi.

*Necha muddat, kecha-kunduz ko ‘rganing ag‘yor edi,
Shu sababdin har tukum jismimda go \yo mor edi,
Shorn vaqtidek, Muqimiyy, ro ‘zg ‘orim tor edi.
Shukr, Furqat furqatingda xastayu bemor edi,
Bir boqishda ayladi dardimg ‘a darmon κ o ‘zlarin.*

Bu beshlik band - Muqimiyning muxammasi taxmis usulida yozilgan “Ko‘zlarin” radifli g‘azalining so‘nggi bandi. Bu bandning dastlabki uch bandi Furqatga tegishli. Har ikkala shoir misralari mavzu va g‘oya jihatidan bir butunlikka ega.⁸⁷

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilgan 10 ta muxammasidan barchasi taxmis shaklida bo‘lib, ulardan 3 tasi “malik ul-kalom” Lutfiyga, qolgan 7 tasi esa o‘zining mashhur g‘azallariga bitilgan. Alisher Navoiyning Lutfiy g‘azali asosida yozilgan muxammasining oxirgi bandi quyidagicha:

*Har gado egnida bo‘lsa eski to ‘n yo choki jayb,
Bilmay asli niyat qilmoq g‘alatdur shakku rayb,
Ey Navoiy, chun sanga ma ‘lum emastur sirri g‘ayb,
Lutfi(y)ni mayxonada oshufta ko ‘rsang, qilma ayb
Kim, bu majnun ixtiyor zulfi qullobindadur.*⁸⁸

O‘z g‘azallariga taxmis bog‘lash mumtoz adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha kuzatilmagan. Navoiydan keyin esa bunday holat ba’zi shoirlar, xususan Xiva adabiy muhiti ijodkorlarida ko‘rinadi. Muhammad Rahimxon Feruz davridagi XIX asr Xiva adabiy muhitida temuriylar va Alisher Navoiy ijodiga qiziqish va ehtirom yuksak darajada bo‘lib, Feruzshoh o‘z faoliyati davomida Sulton Husayn Boyqaroga taqlid qilishga uringan va Alisher Navoiy singari o‘z g‘azallarining aksariyatiga o‘zi taxmis bog‘lagan . Xuddi shu muhitning yana bir

^{85 85} O.Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. – Namangan, 2015

^{86 86} Adabiyotshunoslik lug‘ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013

⁸⁷ O.Karimov. Mumtoz she’riyat janrlari. – Namangan, 2015

^{88 88} D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. T., 2018.

yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy ham Alisher Navoiy, Fuzuliy kabi ulug' so'z ustalariga muxammas bog'lagani holda o'zining o'nta g'azalini beshlantirib, taxmis holiga keltirgan.⁸⁹

She'riyatimizda taxmis muxammasnning Navoiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi qator mumtoz so'z san'atkorlari hamda Habibiy, Chustiy, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, J.Kamol kabi yangi davr shoirlari bog'lagan go'zal namunalari mavjud.⁹⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi, II Kitob "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent-1967.
2. Muqimi. Tanlangan asarlar."O'qituvchi"nashriyoti, Toshkent,1973.
3. A.Qayumov. Maxmur. O'z. FA nashriyoti, Toshkent,1956.
4. Mujrim Obid. Tanlangan asarlar, Toshkent,1960.
5. Turdi. Tanlangan asarlar, "Fan" nashriyoti, Tosh. 1951.
6. Muqimi. Tanlangan asarlar, "O'qituvchi" nashriyoti;Toshkent,1973.
7. D.Yusupova. Aruzvazniqoidalarivamumtozpoetikaasoslari. T., 2018.
8. O.Karimov. Mumtozshe'riyatjanrlari. – Namangan, 2015
9. Adabiyotshunosliklug'ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013

АНАЛИЗ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ТОВАРНОЙ СТРУКТУРЫ ЭКСПОРТА В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

д.э.н., профессор кафедры "Мировая экономика и
международные экономические отношения" УМЭД

H.Сирахиддинов

Магистрант УМЭД

K.Шоисломова

Аннотация. Опыт развивающихся стран показывает, что страны с диверсифицированной экспортной корзиной имеют более высокие и устойчивые темпы экономического роста, чем страны с менее диверсифицированной экспортной корзиной. В этом статье анализируются на сколько диверсифицирована экспортная корзина Республики Узбекистан.

Ключевые слова: экспорт, Экспортная корзина, ресурсосбережение, товарная структура, диверсификация, диверсификация экспорта, Индекс диверсификации экспорта, индекс Герфиндаля—Хиршмана, устойчивый экономический рост, экономическая активность, импортные товары, внешний шок, экономический рост, экспортоорентированность, импортозамещение.

Развивающиеся страны с ограниченной экспортной корзиной чаще всего подвержены ко внешним шокам, т.е. девальвация национальных валют,

⁸⁹ D.Yusupova. Alisher Navoiy taxmislari. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/1267-maqola.html>

⁹⁰ Adabiyotshunoslik lug'ati / D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013

Z.D.Rasulova	<i>BO'LAJAK O'QITUVCHILAR KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH</i> 1000
Q.R.Babadjanov M.R.Atabayeva	<i>BO'LAJAK PEDAGOGLarda KREATIV TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA AUDITORIYADAN TASHQARI MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI.....</i> 1004
R.X.Kadirov B.B.Sharipov M.A.Farmonova Z.J.Boboeva	<i>TALABALAR JISMONIY MADANIYATINING ADAPTIV PEDAGOGIK YONDASHUVLARI</i> 1008
Sh.Sh.Olimov	<i>ILMIY TADQIQOT JARAYONIDA PEDAGOGIK RISKOLOGIYADAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI</i> 1015
R.S.Shukurov R.R.Narzullayeva	<i>TALABA-YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI</i> 1019
Z.N.Rizoqulov	<i>G'AZZOLIYNING "MUKOSHAFATUL QULUB" ASARIDAGI AYRIM PAND-NASIHATLAR HAQIDA</i> 1025
S.U.Boymurodov	<i>MALAKALI KURASHCHILAMING YILLIK SIKLDAGI TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISH.....</i> 1027
Sh.I.Sodiqov	<i>MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA SPORT YO'NALISHIDAGI HARAKATLI VA XALQ O`YINLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI.....</i> 1030
D.D.Ahatova	<i>LUTFIY, ATOYI VA GADOIY G'AZALIYOTIDA PAYG'AMBARLAR OBRAZLARIGA MUROJAATNING KO'LAMI VA TASNIFI.....</i> 1034
K.H.Qudratova	<i>NAVOIYNING IJOD CHASHMASIDA SAYYID HASAN.....</i> 1037
Z.S.Anvarova	<i>YANGI O`ZBEKİSTONDA SUG`URTA TİZİMİ , UNI INNOVATSİON RIVOJLANISHNING ASOSIY YO`NALİSHLARI VA SUG`URTA TİZİMİDA RAQAMLI İQTİSODİYOTNING O`RNI.....</i> 1041
A.A.Boqiyev	<i>SAIF ZAFARI BUXORIYNING "DURRUL MAJOLISI TURKI" TOSHBOSMASI XUSUSIDA</i> 1044
M.S.Tog'oyeva	<i>BUXORO SHAHRI TABIIY SHAROITI VA IRRIGATSIYA TİZİMİ XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA</i> 1047
M.K.Musayev	<i>BUXORO VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTISHNING MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF QILISH YO`LLARI</i> 1050
Sh.I.Raxmatova	<i>APPLIKATSIYA USULIDA NAQSH YASASH MAVZUSI BO`YICHA DARS ISHLANMASINI TAYYORLASH.....</i> 1054
N.Bekova A.Ortigova	<i>O`ZBEK ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRI TARAQQIYOTI</i> 1057